

## ALEKSANDR FAYNBERG HAYOTI, IJODINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Raxmonqulova Feruza Akmal qizi

O'zDJTU Xorijiy til va adabiyoti 3-fakulteti, 2210-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Aleksandr Arkadevich Faynberg asarlari, ilmiy ishlari va tarjimalari, adabiyotda tutgan o'rni, o'zbek adabiyotiga qo'shgan hissasi haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, shoir ijodining bugungi kundagi ahamiyati haqida qayd etilgan

**Kalit so'zlar:** tarjima, she'riyat, vatan, mehr-muhabbat, millat, o'zbek xalqi

Adabiyot shunday bir dengizki, unda daryolarning qudrati, ummonlarning teranligi bor; shunday bir chamanzorki, unda xushbo'yifor taratgan gullar , haliochilmagan g'unchalarning tarovati bor; shunday bir oltin ko'priikki, u xaljni birlashtirib, do'stlik rishtalarini mustahkamlaydi. Zero, adabiyotning tili bitta, san'at tilidir . Adabiyot tarixida shunday ijodkorlar yashab o'tganki, ular garchi boshqa millat vakili bo'lsa-da, ijodi orqali o'zbek xalqini dardini, ruhini kuylagan, adabiyotimizni jahonga targ'ib qilishda mislsiz jonbozlik ko'rsatgan, ana shunday buyuk insonlardan biri O'zbekistonning Rossiya Federatsiyasi bilan madaniy aloqalarini rivojlantirishga qo'shgan ulkan hissasi uchun Pushkin medali bilan taqdirlangan, o'zining yoniqshe'riyati bilan adabiyotimiz osmonida o'chmas iz qoldirgan O'zbekiston xalq shoiri Aleksandr Faynberg edi.

Aleksandr Faynberg 1939-yil 2-noyabr kuni Toshkentning Jukoviskiy mahallasida tavallud topgan. Shoир Toshkent davlat universitetining jurnalistika fakultetini tamomlagan. Shu bilan bir qatorda Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi bo'lib ham faoliyat yuritgan. Shu tariqa uning asarlari dunyo yuzini ko'ra boshladi. Aleksandr Faynberg rus shoiri O'zbekiston xalq shoiri , O'zbekiston shoirlari osmonida shubhasiz eng yorqin yulduzlardan biridir. U 15 ta she'riy kitoblar muallifi hisoblanadi. Shuningdek uning ssenariylari asosida 4 ta metrajli badiiy film suratga olinadi. Bundan tashqari shoirning ssenariyi asosida "O'zbekfilm" kino studiyasida " Mening akam" "Jazirama oftob tagida" "Qandaharda toblanganlar" asarlari, "Tojikfilm" kinostudiyasida " Jinoyatchi va oqlovchilar" va boshqa filmlari suratga olingan. Faynberg ssenariyi asosida 20ga yaqin multifilmlar yaratilgan. Uning asar va she'rlari Kanada va Isroil kabi xorijiy mamlakatlarning vaqtli matbuotlarida chop etiladi.

Aleksandr Faynberg katta tarjimon . Urusiy zabon kitobxonlarga ko'plab o'zbek shoirlaring ochib bergan.Taniqli shoirning o'zbek tiliga o'girilgan she'rlari "Chig'ir" kitobida o'quvchilar qo'liga yetib keldi. Faynberg ijodining

muhim qismini badiiy tarjimalr tashkil qiladi. O'zbek she'riyatining mukammal bo'lgan shoir Navoiy g'azallari , E.Vohidov, Abdulla Oripov . Omon Matjon va boshqa o'zbek shoirlarining she'r va dostonlarini rus tiliga tarjima qilgan.

Faynbergning lirik qahramoni tarixiy ijtimoiy silsilalar asrida o'zining insoniy mohiyatini to'la saqlab qolgan , o'zgaga mehr , shavqat va madad qo'lini uzatishga tayyor bo'lgan insoniy sifatlarni mahorat bilan tasvirlab bergen. Shoir O'zbekistonni ona vatanim deya jondan ortiq sevdi. Ona deya ardoqlagan vataniga mehr-u muhabbat , shukronalik tuyg'ularini izhor etishdan tolmaydi. She'rlari nasriy asarlari O'zbekistonning Jannat makon manzaralarini, xalqimizning milliy urf-odatlarini, yuksak madaniyati va ma'naviyatini tasvirladi. Tasvirlaganda ham samimiyl, yurakni jiz etadigan muhabbat harorati ila jonli va hayotiy ifodalanadi. Shoirning ijodi sermahsul va keng ko'lamli.

O'zbekiston xalq shoiri, Kinomatografiya uyushmasi a'zosi Aleksandr Faynberg Rossiya prezidenti tomonidan O'zbekiston O'rtaisdagi madaniy aloqalarga munosib hissa qo'shganligi uchun Pushkin medali bilan taqdirlandi. Prezidentimizning tashabbusi bilan yangidan bunyod etilgan adiblar xiyobonida mumtoz va zamonaviy adiblarning ulug' namayondalari qatorida Aleksandr Faynberg haykali ham o'rnatildi. Aleksandr Faynberg o'zbek she'riyatining eng ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri ekanligi shubhasiz. Uning ismi va ishi butunlay o'zbekmuxlislari va shoirlari orasida o'zgarmasdir. Faynberg she'riyatida tarixiy va hozirgi davrlar, G'arb va Sharq, millatchilik vabaynalmilallik, G'arb va Sharq esa alohida estetik soha yaratish uchun birlashdi. Aleksandr Arkadevich biz uchun, o'zbekistonliklar uchun uning o'z vatanining haqiqiy vatanparvarligi uchun juda qadrlidir. Aleksandr Faynbergning mumtoz she'riyatningeng yaxshi an'analari va O'zbekiston zaminiga mehr-muhabbat tuyg'ulari singdirilgan beqiyos va noyob asari adabiyotimiz tarixida alohida sahifadir. Aleksandr Faynbergni tilidan yoki millatidan qat'iy nazar, O'zbekistondagi barcha adabiyot ixlosmandlari yaxshi bilishadi va hurmat qilishadi.

U adabiy bilimi va lug'at fondini tinimsiz boyitgani va she'riyat "sir"larini mukammal egallaganidan so'ng o'zbek shoirlarining asarlarini tarjima qilishga kirishadi va badiiy tarjima sohasida katta yutuqlarga erishadi. Shu ijodiy jarayonda V. A. Jukovskiy iborasi bilan aytganda asarlari tarjima qilinayotgan shoirlarning "qul" emas, balki munosib "raqib" bo'lishga intildi. Moskvada nashr qilingan O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning "Ruhlar isyonii" poemasi , Toshkentda chop etilgan "Oqqushlar galasi" nomli o'zbek shoirlari ijodidan qilingan tarjimalari jamlanmasi Faynberg tarjimonlik faoliyatining qo'sh cho'qqisi hisoblanadi . Shoir she'rlari ham o'zbek xalqi qalbiga shu qadar chuqr kirib borganki, tasvirning sirli va jozibadorligi, tuyg'ular yorqinligi va tiniqligi o'quvchini o'ziga hamroh qiladi va xayollarini uzoq-uzoqlarga olib ketib chuqr o'yga toldiradi:

*Suzyapman, muhabbat, olis  
Gulxanlardan o'ralaydi tutun.  
Sendan bo'lsa oladi yulduz,  
Bu qirg'oqdan ketmam bugun.  
Qirg'oqqa tashlayman langarcho'p,  
Izmiga soladi moviy suv.  
To'lqinlari yugurik, to'p-to'p  
Daryo tubi –adabiy g'uluv.*

Shoirning ijodi keng ko'lamli va sermahsul. Uning she'rlarida rang-baranglik, falsafiy teranlik tuyg'ulari yorqin aks etib turadi. Shoir so'zni chuqur his etadi, bu hisga o'quvchini ham hamroh qiladi. U O'zbekistonda yashadi, ijod qildi, bu yurtning havosi, osmoni, tuprog'i, eli bir so'z bilan aytganda, butunborlig'ishoирга she'r qadar, qalb qadar aziz bo'lib ulgurgan edi. Shoir o'zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan, o'zining betakror asarlarida el-u yurtimizni yuksak badiiy mahorat bilan tarannum etgan noyob iste'dod egalaridan biri edi. Shoir o'zidan o'chmas va tunganmas asarlarini meros qilib qoldirdi. Uning she'riyatidagi jozibasi juda turlicha fe'l-atvor, qarashlar va turli yoshdagi odamlarning qalbini zabit etdi. AleksandFaynberg ijodi istiqlol ruhi maqsadlari bilan yog'ringarligi, millat manfaati uchun xizmat qilganligini anglatadi. Shunday og'ir davrda O'zbekistonning, o'zbek xalqining matonati va mehribonligini takror-takror madh etadi. U paytda hamma o'z jonini qutqarishni o'ylar, lekin odamgarchiligi baland o'zbeklar boshiga musibat tushgan millatlarni o'z bag'rige olib, boshini silaganini she'rlarida cheksiz minnatdorlik tuyg'usini qaynoq mehr bilan e'tirof etdi. O'zining yeb turgan nonini boshqalar bilan baham ko'rgan , madadga muhtojlarning jonini saqlab qolgan millatga boshi yerga tekkudek ta'zim qilib, rahmat aytdi. Shoir bor vujudi bilan his qilgan tuyg'ularini qog'ozga tushirdiva oz tuyg'ularini kitobxonlar bilan baham ko'rdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alexander Fainberg —An Attempt to Autobiography
2. Mikhail Knizhnik —Living Poet Published in TheJerusalemJournal. Number 31, 2009
3. Elena Atanova: Alexander — Feinberg's Cage of Freedom
4. Alexander Fitz —AboutthePoet Feinbergll Published in Khreshchatyk magazinenumber 4, 2005
5. "Literatureand Art of Uzbekistan" newspaper, Number 24, 2009
6. Musurmonov R. "TheAlley of Writers - theGarden of Enlightenment". –T .: Uzbekliteratureand art, June 19, 2020.
7. AlexanderFeinberg. Chigir. T .: Sharq, 2007.
8. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr\\_Faynberg](https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg)

9. <https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>
10. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>
11. [https://arm.samdchti.uz/library/book\\_view/692](https://arm.samdchti.uz/library/book_view/692)